

**PEDAGOG SHAXSIGA QO‘YILGAN ZAMONAVIY DIDAKTIK TALABLAR****Jumaniyazov Zohidjon Ilhamovich***Osiyo Xalqaro Universiteti 2-bosqich magistratura talabasi***Djalilova Zarnigor Obidovna***Osiyo Xalqaro Universiteti Fundamental tibbiyot kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***Razakov G‘ulomjon Abduvoxidovich***Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti Kimyo kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**ANOTATSIYA.** *Mazkur maqolada pedagog shaxsiga qo‘yiladigan zamonaviy didaktik talablar, o‘qituvchilik kasbining tarixiy shakllanishi va uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni tahlil etilgan. Pedagoglik faoliyatining ibtidoiy davrlardan boshlab shakllanish jarayoni, ta‘lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi asoslab beriladi. Shuningdek, zamonaviy o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy fazilatlari, pedagogik mahorati, ijtimoiy-psixologik kompetensiyalari hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalari yoritilgan. Maqolada o‘qituvchining nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, yetakchi va jamiyat rivojiga ta‘sir etuvchi muhim shaxs sifatidagi roli ochib beriladi. Shu bilan birga, buyuk mutafakkirlar va pedagoglarning qarashlari asosida pedagog shaxsining ideal modeli tavsiflanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *pedagog, didaktik talablar, zamonaviy o‘qituvchi, pedagogik mahorat, ta‘lim va tarbiya, kasbiy kompetensiya, ijtimoiy-psixologik yondashuv, innovatsion texnologiyalar, pedagogik madaniyat, barkamol avlod.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются современные дидактические требования к личности педагога, а также анализируются исторические аспекты формирования педагогической профессии и её роль в развитии общества. Освещается процесс становления педагогической деятельности с древнейших времён, обосновывается неразрывная связь обучения и воспитания. Особое внимание уделяется профессиональным и личностным качествам современного учителя, его педагогическому мастерству, социально-психологическим компетенциям и навыкам использования инновационных технологий. В статье раскрывается роль педагога не только как носителя знаний, но и как воспитателя, лидера и важного субъекта общественного развития. Также на основе взглядов выдающихся мыслителей и педагогов представлена модель идеальной личности педагога.*

**Ключевые слова:** педагог, дидактические требования, современный учитель, педагогическое мастерство, обучение и воспитание, профессиональная компетентность, социально-психологический подход, инновационные технологии, педагогическая культура, гармонично развитая личность.

Pedagoglik kasbi, uning paydo bo‘lishi va ravnaq topishining tarixiy jihatlariga nazar solar ekanmiz, pedagoglik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog‘liqligini anglaymiz. Terib-termalab kun kechirgan ibtidoiy davr kishilari bolalarni o‘zlari bilan ergashtirib yurib, ularga ov qilish, turli daraxt mevalarini terish, o‘simliklarning ildizini kavlab olish, suv manbalarini izlab topish kabi harakatlarni amalga oshirishni o‘rgatganlar. Bunday harakatlar qabila va urug‘ning tajribali kishilari yoki keksalar tomonidan amalga oshirilgan. Oddiy kundalik ehtiyojlarni qondirish yo‘lida olib borilayotgan xatti-harakatlar asosida yoshlarga mavjud tajribalar orqali ma‘lumotlar berib, ularda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirganlar. Turli tovushlarni chiqarish yordamida atrofdagilarni yaqinlashayotgan xavfdan ogoh qilishni bolalar kattalarning namunalari asosida o‘zlashtirganlar. Nutq va yozuv paydo bo‘lgunga qadar bu kabi harakatlar imo-ishoralar asosida amalga oshirilgan. Kishilik tarixida tub inqilobni sodir etgan nutq va yozuvning paydo bo‘lishi, shuningdek, urug‘ jamoasi tomonidan bajariladigan mehnat faoliyatining turli sohalarga ajralishi yoshlarga nisbatan munosabatning ilg‘or (progressiv) xarakter kasb etishiga imkon berdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirzoyoyevning 2020-yil 1-oktyabrda “O‘qituvchilar va murabbiylar” kuni bilan qilgan maruzasida “Men o‘qituvchilarga ishonaman, o‘qituvchilar bizning tayyorlovchi fidoiy jonkuyar kishilardir”, deb katta baho berdi. Muallimlik ana shunday kasblardan bo‘lganligi uchun o‘qituvchi odobi boshqa kasb egalaridan farq qilishi lozim. Bu pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri va o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Jamiyat uchun o‘qituvchining o‘rni va roli beqiyos. Ularning saviyasi jamiyatni yo tubanga, yoki yuksakka olib boradi. Tushunarli bolishi kerakki, o‘qituvchi – ulkan mas’uliyatli, hur fikrli va o‘sib boruvchi bilim egasi. Zamonaviylik uning majburiy sifati, bilimiga qanady talab bolsa, unga ham shunchalik qat’iy talab boladi. Ya’ni bilimini bu zamonga muvofiqlashtirib borilmasa, nafi va dolzarbligi kamayib boradi. Demak, keng dunyoqarash, hur fikrlash va zamonaviylik – o‘qituvchining majburiy kasb talabi. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O‘qituvchi – sinfdagi o‘quv jarayoni tashkilotchisidir. O‘qituvchi oquvchilar uchun dars payti, qo‘shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidan biridir. Ko‘pchilik o‘qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo‘lib hisoblanadilar. Zamonaviy o‘qituvchi ijtimoiy psixolog bo‘lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yo‘lga sola olishi, bolalar

jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. Zamonaviy pedagogning qobiliyati – zamonaviy ta’lim beruvchi, shogirdlarini aql-u donishlikka, iymon-e’tiqodga, faol hayotiy pozitsiyaga, tashabbuskorlikka, tadbirkorlikka, ijodga yo’naltirish kabi qator qobiliyatlarga ega bo’lishi zarurligi ko’zda tutilmoqda. Ushbu qobiliyat turi, ta’lim oluvchilarning kelajak faoliyatlariga yo’naltirilganligi uchun, uni biz strategik qobiliyat atadik.

O’z davrining mashhur pedagog-gumanisti, chexlik yozuvchi Yan Amos Komenskiy o’qituvchining bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga katta baho berib, o’qituvchilik “yer yuzidagi har qanday kasbdan ko’ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb” ekanligini yozib qoldiradi. Muallifning fikricha, pedagog o’z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o’z qadr-qimmatini to’la baholay bilishi zarur. Yan Komenskiy o’qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o’z ishini sevuvchi, o’quvchilarga otalardek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg’otuvchi, o’quvchilarni o’z ortidan ergashtiruvchi va diniy e’tiqod fazilatlarining namoyon bo’lishi maqsadga muvofiq ekanligiga urg’u beradi. Taniqli rus pedagogi va adabiyotshunosi Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy o’qituvchi ma’naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish zarurligi to’g’risida o’z g’oyalarini fikrlarida ilgari suradi. Mazkur g’oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi jarayon – o’qituvchilarni tayyorlovchi tizimni ilk bor asoslaydi. O’z davrlarida Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Yan Amos Komenskiy, Lev Tolstoy, Abdulla Avloniy va boshqalar o’z asarlarida o’qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o’qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo’lgan sifatlar xususidagi qarashlarni yoritish orqali o’zlari ham pedagogik madaniyatga ega ekanliklarini namoyon etganlar. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo’lmagan shaxs ta’lim tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta’minlovchi fikrga ega bo’lmaydi. Ularning pedagogik madaniyatlari zamirida bolani tushuna olish, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo’lish, vaziyatni to’g’ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo’lgan ziddiyatlarni o’z vaqtida bartaraf etish hamda pedagogik jarayonda o’quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g’oyalarning hayotda mavjudligini ta’minlash yo’lida qudratli vosita ekanligiga ishonch hosil qildirishda o’z aksini topadi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, zamonaviy pedagog nafaqat o’z fanini chuqur bilishi hamda pedagogik mahoratga ega bo’lishi bilan birgalikda chet tillarini ham bilishi lozim. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari va smart doskalar bilan ishlash uchun ham til bilimdonligi pedagog uchun zarur. O’qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma’naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o’rnak bo’lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida malakali

kadrlarni tayyorlash ishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shishi zarur. Zamonaviy pedagog o‘z o‘quvchisi uchun har tomonlama ideal shaxs sifatida gavdalanishi lozim. Shundagina o‘quvchi kelajakda o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun ushbu ideal shaxsdan o‘rnak olib, ham shaxs ham yetuk malakali kadr sifatida shakllanadi. Aynan hozirgi davr uchun nafaqat bilimli, balki ma‘nan yetuk, mamlakati uchun har jabhada “labbay” - deya, javob bera oladigan vatanparvar shaxslar zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yan Amos Komenskiy. Buyuk didaktika (Didactica Magna). – Ta‘lim nazariyasi va pedagogik asoslar bo‘yicha klassik asar.
2. Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy. Inson – tarbiya predmeti. – Pedagog shaxsiyati va tarbiya masalalariga bag‘ishlangan ilmiy asar.
3. Shavkat Mirziyoyev. O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ma‘ruza (2020-yil 1-oktyabr). – Zamonaviy o‘qituvchi nufuzi va jamiyatdagi o‘rni haqida.
4. Razakov, G. A. (2024). THE USE OF MODERN TEACHING METHODS AND TOOLS IN THE TEACHING OF CHEMISTRY. Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal, 1(1), 69-73.
5. Razakov, G. A. (2021). DETERMINATION OF NATURAL SCIENCE LITERACY OF STUDENTS ACCORDING TO THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(8), 866-871.
6. GULOMJON, R. (2020). Methods Of Forming Students Natural Science Literacy In Chemistry Lessons. JournalNX, 6(05), 132-135.